



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 19-fevral, № 34 (9205)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON – AQSH STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI BARQAROR SUR'ATDA RIVOJLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Tinchlik kengashining dastlabki yig'ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo'lib turibdi.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga amaliy tashrifi AQSh savdo vaziri Xovard Latnik bilan uchrashuvdan boshlandi.

O'zbekiston – AQSh strategik sherikligini yanada mustahkamlashning amaliy jihatlari, shuningdek, ustuvor yo'nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Qo'shma Shtatlar O'zbekistonning asosiy sheriklaridan biri ekanligi mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo hajmi 1 milliard dollardan oshdi, mamlakatimiz bozorida AQShning 340 ga yaqin kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Energetika, o'ta muhim minerallar, transport, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarida yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Qiymati 35 milliard dollar bo'lgan uch yillik iqtisodiy hamkorlik dasturi amal qilmoqda.

Ustuvor loyihalarini tizimli qo'llab-quvvatlash uchun yaqinda tashkil etilgan Ishbilarmonlik kengashining imkoniyatlaridan foydalanish va Investitsiya platformasini ishga tushirish zarurligi ta'kidlandi.

Savdo munosabatlari rivojlantirish hamda O'zbekiston hududlari bilan to'g'ridan-to'g'ri ishbilarmonlik

aloqalarini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Vashington shahriga tashrifning ishbilarmonlik tadbirlari davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSh Eksport-import banki prezidenti va raisi Jon Yovanovich hamda Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh ijrochi direktori Ben Blekni qabul qildi.

O'tgan yili Prezident Donald Tramp bilan bo'lib o'tgan muzokaralar AQSh ishbilarmon doiralari bilan savdo-investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga kuchli turtki bergani ta'kidlandi.

Ishbilarmonlik kengashi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ustuvor loyihalarini tizimli ilgari surish uchun Investitsiya platformasini ishga tushirishga alohida e'tibor qaratildi.

Eksimbank bilan hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi. Yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish hamda yuqori texnologiyali uskunalar yetkazib berishni qo'llab-quvvatlash shular jumlasidan.

DFC rahbariyati bilan suhbatda investitsiyaviy hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash muhimligi ta'kidlandi. Korporatsiyaning yirik milliy va mintaqaviy loyihalarda ishtirok etish, moliya bozori va

energetika tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha rejalari qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Prezidenti AQSh tomonidan Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif qildi. Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari huzurida tashrif davomida imzolangan O'zbekiston va AQSh o'rtasida investitsiya platformasini tashkil etish to'g'risidagi bitim almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga amaliy tashrifi doirasidagi ishbilarmonlik uchrashuvlarining navbatdagi AQSh savdo vakili Jeymison Grir bilan bo'ldi.

Qo'shma loyihalar doirasida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimining amaliy natijalari muhokama qilindi.

O'zbekiston – AQSh strategik sheriklik munosabatlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida barqaror sur'atda rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.

O'zaro savdoni ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlar mamnuniyat bilan qayd etildi. O'tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi.

Mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lish jarayonini yakuniga

yetkazishga oid masalalarda amaliy hamkorlikni kuchaytirish va AQSh tomonidan ushbu jarayonlarni yanada qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Mahsulotlarni barqaror yetkazib berish, texnik tartibga solish va raqamli savdoga oid mintaqaviy yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSh o'rtasidagi Savdo va investitsiyalar bo'yicha hadli bitim (TIFA) doirasida hamkorlikni faollashtirish taklifi bildirildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Prezidenti AQSh savdo vakili Jeymison Grimi joriy yilning iyun oyida bo'lib o'tadigan Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vashington shahriga tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida ikki tomonlama hujjatlarni imzolashga bag'ishlangan marosim va qo'shma loyihalar taqdimotida ishtirok etdi.

Tadbirda AQSh hukumati va moliya institutlari vakillari – savdo vakili Jeymison Grir, Prezidentning maxsus vakili Paolo Zampolli, Eksimbank prezidenti va raisi Jon Yovanovich, AQSh – O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, shuningdek,

“Traxys”, “Valmont Industries”, “Gulf Oil”, “Avigen Broiler Breeding Group”, “John Deere”, “BlackRock Financial Markets Advisory”, “Oppenheimer” va boshqa yetakchi kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Videoaloqa orqali uchrashuvda O'zbekiston hududlari rahbarlari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida yangi, amaliy formatda o'tayotgan ushbu uchrashuv bundan avvalgi davra suhbatining mantiqiy davomi hamda iqtisodiy sheriklik strategik ishonch va o'zaro manfaatdorlik ruhida yuksak darajaga ko'tarilayotganining ifodasi ekanini ta'kidladi.

– Bugungi kunda sheriklar ishonchli, qoidalar aniq-ravshan, hamkorlik esa uzoq muddatli bo'lishi yetakchi o'ringa chiqmoqda. Biz Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorligimizni aynan shu mantiq asosida qurmoqdami, – dedi Prezidentimiz.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo'nalishlariga to'xtalib o'tildi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyot O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi strategik sheriklikning asosiy tayanch nuqtalaridan biri ekanini ta'kidladi.

Qo'shma Shtatlar bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari qatorida o'ta muhim xomashyo, neft

kimyo, energetika, qishloq xo'jaligi, parrandachilik va boshqa tarmoqlar ko'rsatib o'tildi. AQSh Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi va Eksimbankning bitimlarga hamrohlik qilishda doimiy hamkorlar sifatidagi roli ortib borayotgani alohida qayd etildi.

Qo'shma Ishbilarmonlik va investitsiya kengashining salohiyatidan faol foydalanish muhimligi ta'kidlandi.

Hududlararo aloqalarni mustahkamlash doirasida O'zbekiston hududlari rahbarlarining AQShning hamkor shtatlariga tashriflarini tashkil etish topshirildi.

Davlatimiz rahbari huzurida yoqilg'i quyish shoxobchalari tarmog'ini qurish, yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish, muhim minerallarni qazib olish va yetkazib berish, parrandachilik klasterini tashkil etish, agrosanoat, moliya bozorini rivojlantirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlariga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON TABRIGI

Qadri vatandoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni, butun xalqimizni yurtimizga mehr-oqibat, xayru saxovat va shukronalik timsoli bo'lgan muqaddas Ramazon oyining kirib kelishi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, ushbu qutlug' ayyomda barchamizni Ramazoni sharifga mana shunday sog'omon, birlik va hamjihatlikda yetkazgani uchun Parvardigori olamga cheksiz shukronalar aytamiz.

El-yurtimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida alohida o'rin tutadigan, insonni ezgu va savob ishlarga da'vat etadigan ushbu oyni munosib tarzda o'tkazish maqsadida bu yil ham mamlakatimizda katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahalla va uy-joylar, masjid va madrasalarni obod qilish, keksa, nogiron va yordamga muhtoj shaxslarning holidan xabar olish, qo'shnilar, yaqin qarindoshlarga mehr va e'tibor ko'rsatish, ibodat va iftor marosimlarini tartibli o'tkazishga xonadon va mahalla ahlari, jamoatchilik vakillari tomonidan alohida ahamiyat berilmoqda.

Bularning barchasi bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini,

insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash, yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilishi tabiiy, albatta.

Ramazon oyining ulug' fazilatlarini, axloqiy-ma'naviy ahamiyati aynan ana shunday oliyjanob ishlarda yaqqol namoyon bo'ladi, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Bu haqda so'z yuritganda, keyingi yillarda inson qadrini, har bir fuqaroning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy adolat O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, shu asosda amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlarimiz xalqimiz hayotini tubdan o'zgartirayotganini ta'kidlash o'rinlidir.

Joriy yilni mamlakatimizda **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb e'lon qilganimiz va bu borada tegishli amaliy ishlarni boshlab yuborganimiz zamirida ham ana shunday buyuk intilishlar mujassamdir.

Jamiyatni yuksaltirish asosi mahalladir. Chunki mahallada o'sish va o'zgarish bo'lsa, butun jamiyat rivojlanadi. Mahallalarimizning yutug'i va farovonligi pirovard natijada butun jamiyatning yutug'i va farovonligi sifatida namoyon bo'ladi.

Aziz do'stlar!

Qutlug' zaminimiz uzra Alloh taoloning marhamati yog'ilib turgan mana shunday saodatli kunlarda ajdodlar xotirasini, ularning ezgu ishlari, xayrli amallarini eslash va davom ettirish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda islom dini va madaniyati ravnaqiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning muqaddas qadamlarini obod qilish, ilmiy merosini tiklash va o'rganish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida targ'ib etish bo'yicha ko'pgina ishlarni amalga oshirayotganimiz sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Ulug' ajdodlarimizning shonli an'analarga sadoqat bilan yashab kelayotgan xalqimizning azmu shijoati bilan noyob me'moriy loyihalar asosida Toshkent shahrida – Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda esa buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriy majmuasini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazilganini faxr bilan aytib o'tmoqchiman.

Ramazoni sharif kunlarida muhtaram ulamolalarimiz, ilm-fan va ijod ahli, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ana shu tabarruk maskanlarda buyuk aziz-avliyo va allomalarimiz xotirasiga ehson dasturxonlari yozib, bu muqaddas ziyoratgohlar eshiklarini xalqimiz uchun keng ochishni reja qilganimiz

va bu ishlarni albatta amalga oshiramiz.

Afsuski, hozirgi vaqtda jahonning turli mintaqalarida urush va janjallar davom etmoqda. Pok niyatlar qabul bo'ladigan ushbu muborak ayyomda nizo va adovatlar barham topib, tinchlik, o'zaro ishonch va hamkorlik aloqalari qaror topishini chin dildan istab qolamiz.

Fursatdan foydalanib, uzoq va yaqin mamlakatlardagi vatandoshlarimizga, butun musulmon ummatiga ham samimiy tabrik va tilaklarimizni yo'llaymiz.

Muhtaram yurtdoshlar! Sizlarni ezgulik, mehr-muruvvat va baraka oyi – mohi Ramazonning boshlanishi bilan yana bir bor tabriklayman.

Ushbu shukuhli kunlarda barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik tilayman.

Ro'za kunlarida qilinadigan barcha ibodatlar, ezgu niyat va amallar ijobat bo'lsin! Xalqimizni, Vatanimizni Yaratganning o'zi panohida asrasin!

Ramazon oyi barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'zbekiston – AQSh:

STRATEGIK ISHONCH VA GLOBAL DIPLOMATIYANING YANGI DAVRI

Vashington shahridagi Tinchlik kengashining ilk yig'ilishi nafaqat Yaqin Sharqdagi ziddiyatlarni hal qilish, balki xalqaro munosabatlarning yangi formatini shakllantirish yo'lidagi tarixiy voqea sifatida baholanmoqda. Ushbu platformada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ishtirok etishi O'zbekistonning dunyo siyosatidagi o'rnini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganidan, siyosiy vazni ortganidan dalolat beradi.

Biz va jahon

Davlatimiz rahbari shu yil 22-yanvar kuni Shveysariyaning Davos shahrida Tinchlik kengashi Nizomini imzolashi orqali mamlakatimiz ushbu tuzilmaga ta'sischi sifatida a'zo bo'lib kirdi. Tinchlik kengashining tashkil qilinishi O'zbekiston tashqi siyosatining tinchlikni ta'minlash borasidagi tashabbuslari va ko'p qirrali hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalariga mosdir.

Anjuman

NOGIRONLIGI BOʻLGAN SHAXSLAR UCHUN TOʻSIQSIZ MUHIT

Oʻzbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 2030-yilgacha boʻlgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish boʻyicha Parlament komissiyasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi.

Uni Oliy Majlis Senati Raisi, parlament komissiyasining hamraisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Majlisda Barqaror rivojlanish maqsadlarining “Hech kimni eʼtibordan chetda qoldirmaslik” tamoyiliga muvofiq nogironligi boʻlgan shaxslarning jamiyatga moslashuvini taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda ushbu yoʻnalishda juda katta oʻzgarishlar va tub islohotlar olib borildi. Mustahkam huquqiy va institutsional asoslar yaratildi. Nogironligi boʻlgan shaxslar huquqlarini taʼminlash hamda himoya qilish masalalari bugungi kunda 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyalari hamda viloyat markazlarida joylashgan 33 ta ixtisoslashtirilgan va pediatriya komissiyasi tugatilib, nogironlikni belgilashning tamomila yangi mexanizmi joriy etildi, korruptsiyaviy omillarga barham berildi.

Mulhojalmi protez va reabilitatsiya vositalari bilan elektron tijorat orqali voucher asosida taʼminlash tartibiga oʻtildi. Protez va reabilitatsiya vositalari roʻyxati 18 tadan 38 tagacha kengaytirildi. Ushbu yoʻnalishda ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi tadbirkorlar soni 5 baravarga (27 tadan 134 taga) koʻpaygan. Shu tariqa bunday vositalarni yetkazib berish muddati 4 karra qisqardi.

Nogironligi boʻlgan shaxslarning bandligini taʼminlash borasida ham tub islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunday toifadagi fuqarolarni ishga olgan tadbirkorlarga soliq va ijtimoiy toʻlovlar boʻyicha qator imtiyozlar joriy etilib, 1 yoki 12 guruh nogironligi boʻlgan shaxslarni ishga qabul

qilgan tadbirkorlik subyektlariga 50 mln. soʻmgacha subsidiya ajratilmoqda.

Shuningdek, majlisda nogironligi boʻlgan shaxslarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda jamiyatga moslashuvini taʼminlash borasida Sirdaryo viloyatida amalga oshirilgan ishlar holatini oʻrganish yakunlari muhokama qilindi.

Nogironligi boʻlgan shaxslarning qulay va toʻsiqsiz harakatlanishi uchun har bir tuman va shaharda bitta “ijtimoiy koʻcha” tashkil etilgan. Viloyatda 62 ta maktabning 81 ta sinfida inklyuziv taʼlim bilan qamrab olingan bolalar soni 117 nafarga yetgan. Soʻnggi uch yilda nogironligi boʻlgan yoshlarning oliy taʼlim bilan qamrov darajasi 89 foizga oʻrtan.

Olib borilgan amaliy ishlar natijasida 2025-yil davomida viloyatda mehnatga layoqatli 19 110 nafar nogironligi bor shaxsdan 5 601 nafarining (29 foizi) bandligi taʼminlangan. Shuningdek, 1 462 nafar nogironligi boʻlgan shaxs yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shugʻullanmoqda.

Parlament komissiyasining majlisida tizimli muammolar mavjudligi ham qayd etildi. Jumladan, nogironligi boʻlgan shaxslarni himoya qilish borasida huquqni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish, ular uchun toʻsiqsiz muhit yaratish hamda oliy taʼlim tizimida inklyuziv taʼlimni tatbiq etish ishlarini jadallashtirish zarurligi taʼkidlandi.

Yakunda Parlament komissiyasining tegishli qarori, respublika hamda Sirdaryo viloyatida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejası (“Yoʻl xaritasi”) qabul qilindi hamda mutasaddi vazirlik va idoralar zimmasiga ularning ijrosini taʼminlash yuzasidan zarur vazifalar yuklatildi.

Uchrashuv

ERISHILGAN KELISHUVLAR IJROSI – DOIMY EʼTIBOR MARKAZIDA

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi Alisher Aʼzamxoʻjayev qator uchrashuvlar oʻtkazdi.

Iordaniya Hoshimiylar Podshohligining Oʻzbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Demiya Haddod bilan uchrashuvda ikki davlat parlamentlari oʻrtasida muloqotni kengaytirish, qonun ijodkorligi, parlament nazorati va boshqa sohalarida tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.

Jumladan, yaqinda Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Senati (Majlis al-Aʼyan) Raisi Faysal Aqif Misqal al-Fayoz boshchiligidagi delegatsiyaning Oʻzbekistonga tashrifi doirasida erishilgan kelishuvlarni oʻz vaqtida amalga oshirishga alohida urgʻu berildi.

Taʼkidlanganidek, ikki tomonlama hamkorlik ichil rivojlanmoqda, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar va parlamentlararo aloqalar tobora mustahkamlanib bormoqda.

Shuningdek, tomonlar ikki mamlakatning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorligi yuzasidan ham fikrlashdi.

Senat va yoshlar

ILMIY, INNOVATSION LOYIHALARNING TAMAL TOSHI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi tashabbusi bilan “Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti talabalari bilan navbatdagi ochiq muloqot tashkil etildi.

Uchrashuvda Senatning vakolatlari, qonun ijodkorligi jarayoni, qonunlarni koʻrib chiqish va qabul qilish tartibi, parlament nazorati mexanizmlari toʻgʻrisida batafsil maʼlumot berildi. Qoʻmitalarning hududlardagi oʻrganish va tahlil ishlariga ham eʼtibor qaratildi.

Shuningdek, talabalarga mamlakatimizda yoshlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha grantlar, tanlovlar va ilmiy-amaliy loyihalar joriy etilgani va unda yigit-qizlarning ishtiroki, Yoshlar parlamenti

imkoniyatlari haqida soʻzlab berildi. Yoshlarning qonunchilik tashabbusi bilan chiqish, jamoatchilik nazorati tadbirlarida ishtirok etish hamda takliflar bildirish huquqiga ega ekani taʼkidlandi.

Muloqot davomida talabalar oʻzlarini qiziqitirgan savollarga atroflicha javob oldi hamda parlament va yoshlar oʻrtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan qator takliflarini bildirdi.

“Xalq soʻzi”.

Davra suhbatı

SARATONNI ERTA ANIQLASH BOʻYICHA SKRINING TEKSHIRUVLARI OʻTKAZILADI

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi tomonidan “Bachadon boʻyni va koʻkrak bezi saratonining oldini olish boʻyicha dasturlar ijrosi holati” mavzuida davra suhbatı oʻtkazildi. Unda mutasaddi vazirlik va idoralarning ayni masalaga doir axborotlari eshitildi.

Maʼlumki, “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi boʻyicha amaliy tadbirlar rejasida har yili 700 ming ayolni bachadon boʻyni saratoni va 1,7 mln. ayolni koʻkrak bezi saratonini erta aniqlash maqsadida skriningdan oʻtkazish vazifasi qoʻyilgan.

Shu bilan birga, skrining orqali bachadon boʻyni va koʻkrak bezi saratoni aniqlangan bemorlar uchun “tezkor yoʻlak” (fast-track) davolash mexanizmini joriy etish,

tashxis qoʻyilgan kundan boshlab davolashga oʻtishgacha boʻlgan muddatni qatʼiy belgilash va nazorat qilishning yangi tizimi boʻyicha takliflar ishlab chiqish vazifalari ilgari surilgan.

Davra suhbatida 2025 – 2030-yillar davomida bachadon boʻyni va koʻkrak bezi saratonini nazorat qilish dasturi monitoringi natijalari tahlil etildi.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan monitoringdan maqsad dastur ijrosini tizimli tahlildan oʻtkazib borish hamda kelgusidagi vazifalarni belgilab

CHORVACHILIKNI QOʻLLAB-QUVVATLASHDA QANDAY CHORALAR KOʻRILMOQDA?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi chorvachilik hamda parrandachilikni qoʻllab-quvvatlash, sohada yuqori qoʻshilgan qiymat yaratish va aholi bandligini taʼminlash yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini Toshkent viloyati misolida nazorat-tahlil tartibida oʻrgandi.

Parlament nazorati

Deputatlar dastlab Qibray tumanida boʻlib, chorvachilikka ixtisoslashtirilgan subyektlar faoliyati bilan tanishdi.

Keyingi yillarda mazkur sohani yanada rivojlantirish, chorva ozuqa bazasini mustahkamlash, aholining yirik chorvachilik xoʻjaliklari va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatini kengaytirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish boʻyicha 2022 – 2026-yillarga moʻljallangan dastur doirasida aholini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror taʼminlash hamda tarmoqlarda ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga doir davlat siyosati izchil roʻyobga chiqarilmoqda.

Muloqotlar chogʻida naslchilik, parrandachilik komplekslari tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, istiqboldagi vazifalar, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar muhokama qilindi.

Deputatlar Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot



instituti hamda qator tadbirkorlik subyektlarida ham boʻldi. Ularning faoliyati bilan yaqindan tanishib, muloqotlari oʻtkazildi.

Uchrashuvlarda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi mutasaddilari tomonidan qayd etilganidek, 2025-yilda mamlakatimizda 3,2 mln. tonna goʻsht, shundan 1 mln. tonna parranda goʻshti, 13,2 mln. tonna sut, 10,5 mlrd. dona tuxum yetishtirilgan. Xususan, Toshkent viloyatida 344,5 ming tonna goʻsht, 1,2 mln. tonna sut, 1,9 mlrd. dona tuxum tayyorlangan.

Shu bilan birga, kooperatsiya tizimi asosida ham parranda mahsulotlarini yetishtirish boʻyicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Masalan,

olishdan iborat ekani taʼkidlandi. Bachadon boʻyni va koʻkrak bezi saratonini nazorat qilish dasturi monitoringi natijalari koʻrsatganidek, onkologiya markazlarida “tezkor yoʻlak” orqali kelgan ayollar qabuli boʻyicha alohida xonalar ajratilgani, muassasalar biopsiya olish uchun sarflov materiallari bilan yetarli darajada taʼminlanganligi qayd etildi.

Shuningdek, Davlat sugʻurta jamgʻarmasi tomonidan kolposkopiya xarajatlarini qoplash, ijtimoiy himoya boʻyicha yuda mobil palliativ yordam, ijtimoiy xizmatni keys-menejment usulida tashkil etishga boʻyicha takliflar bildirildi.

Tadbir yakunida tegishli tavsiyalar qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

“Agroparranda klasteri” loyihasi doirasida Ohangaron, Bekobod va Oʻrta Chirchiq tumanlarida quvvati 2,5 mln. bosh nasli parranda boqishga moʻljallangan naslchilik xoʻjaligi qurilib, bir qismi ishga tushirilgan.

Oʻrganishlardan maʼlum boʻlishicha, bugungi kunda viloyatda naslchilik toifasiga ega 349 ta xoʻjalik faoliyat yuritib kelmoqda.

Bundan tashqari, “Parranda boqish – daromad topish” loyihasi doirasida 40 mingdan ortiq aholining bandligi taʼminlangan. Va loyihaga doir tadbirlarga tegishli miqdorda kredit mablagʻlari ajratilgan.

Oʻrganishlar davomida Toshkent viloyatidagi

aholi xonadonlari va chorvachilik xoʻjaliklaridagi 270 ming boshdan ortiq hayvonlar identifikatsiya qilingani aniqlandi.

Nazorat-tahlil tadbiri davomida sohada amalga oshirilayotgan ishlar eʼtirof etilib, belgilangan vazifalarni oʻz vaqtida bajarish, chorvachilik va parrandachilik sohalarida yuqori qoʻshilgan qiymat yaratish, aholi bandligini taʼminlash boʻyicha takliflar berildi.

Oʻrganish yakunlari qoʻmitada masʼul vazirlik hamda idoralar mutasaddilari bilan birgalikda tahlil qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

“Xalq soʻzi”.

MAMLAKATIMIZNING XALQARO NUFUZI MUSTAHKAMLANMOQDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning AQShga navbatdagi tashrifi mamlakat tashqi siyosatida yangi sifat bosqichi boshlanganini amalda koʻrsatdi. Bu tashrif Oʻzbekistonning xalqaro munosabatlardagi oʻrni va taʼsiri oshib borayotganini, davlat faqat mintaqaviy emas, balki global miqyosda ham faol siyosiy ishtirokchi sifatida qabul qilinayotganini yaqqol namoyon etdi.

Ayniqsa, Prezidentimizning yangi xalqaro koʻp tomonlama platforma hisoblangan Tinchlik kengashining dastlabki yigʻilishida ishtiroki mazkur jarayonga alohida siyosiy ahamiyat bagʻishladi.

Darhaqiqat, soʻnggi yillarda Oʻzbekiston tashqi siyosati ochiqlik, pragmatizm va aniq natijaga yoʻnatirilgan yondashuv asosida izchil ravishda shakllandi. Bu siyosat mamlakatni xalqaro munosabatlarda tashabbus koʻrsatuvchi, kun tartibini shakllantirva oladigan davlatga aylantirdi. AQShga tashrif ham ana shu siyosiy yoʻlining mantiqiy davomi sifatida Oʻzbekistonni ishonchli, oldindan aytilish mumkin boʻlgan va masʼuliyatli hamkor sifatida namoyon etdi.

Oʻzbekistonning Tinchlik kengashi taʼsischi davlatlari qatoridan joy olgani mamlakat tashqi siyosatini mazmunan boyitib, global tinchlik va barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan tashabbuslarda yomoniyat qatnashish bosqichiga chiqqanini anglatadi. Joriy yil yanvar oyida Davos shahrida oʻtgan Jahon iqtisodiy forumi doirasida Tinchlik kengashini taʼsis etish toʻgʻrisidagi shartnomaning imzolaniishi aynan shu yoʻnalishdagi saʼy-harakatlarning institutsional asosini yaratdi. Oʻzbekiston mazkur jarayonda faqat qoʻllab-quvvatlovchi emas, balki tashabbusnig toʻlaqonli taʼsischisi sifatida qatnashadi va

mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillarini yana bir bor namoyon qildi.

Tinchlik kengashi xalqaro mojarolarga kuch ishlatish orqali emas, balki siyosiy muloqot va kelishuv asosida yechim topishga qaratilgan zamonaviy diplomatik platforma sifatida shakllanmoqda. Bunday yondashuv bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida davom etayotgan keskin inqirozlar fonida alohida ahamiyatga ega.

Oʻzbekistonning global tashabbuslardagi faolligi ikki tomonlama munosabatlarda ham aniq natijalar bermoqda. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston va AQSh oʻrtasidagi siyosiy muloqot sezilarli darajada jadallashdi. Oliy darajadagi uchrashuvlar, Nyu-York va Vashingtonda oʻtgan muzokaralar munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari bilan AQSh oʻrtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirishga qaratilgan “C5+1” formatida Oʻzbekistonning roli tobora mustahkamlanmoqda.

Iqtisodiy koʻrsatkichlar ham tashqi siyosatdagi ushbu faollikning amaliy natijalarini yaqqol aks ettirmoqda. 2025-yilda Oʻzbekiston va AQSh oʻrtasidagi savdo aylanmasi 1

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

BOLALAR OMBUDSMANI MAʼRUZASI KOʻRIB CHIQILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qoʻmitasi yigʻilishida Bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning 2025-yildagi Bola huquqlari toʻgʻrisidagi qonunchilikka davlat organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishi holati haqidagi maʼruzasi dastlabki tarzda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda Prezidentimiz rahbarligida bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash borasida tarixiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2021-yil 9-avgustdagi tegishli farmoni bilan tashkil etilgan Oliy Majlisning Bola huquqlari boʻyicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni taʼminlashda muhim omil boʻlmoqda.

“Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari boʻyicha vakili (Bolalar ombudsmani) toʻgʻrisida”gi Qonun bilan Bolalar ombudsmani faoliyatining huquqiy-institutsional asoslari takomillashtirildi. “Bolalarni zoʻravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonun esa bu boradagi islohotlarning uzviy davomi boʻldi. Mazkur hujjat bilan yosh avlodni zoʻravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar, ularning vakolatlari aniq belgilab berildi.

Bolalar ombudsmani maʼruzasiga koʻra, 2025-yilda Bola huquqlari boʻyicha vakil nomiga Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi boʻlmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan 1934 ta murojaat kelib tushgan.

Hisobot yilida Bola huquqlari boʻyicha vakilning shaxsiy qabullarida 141 nafar fuqaro bilan muloqot qilinib, ularning 98 ta murojaati koʻrib chiqilgan.

Murojaatlar tahlili va monitoring faoliyati asosida davlat organlari tomonidan bola huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yoʻl qoʻyilgani yuzasidan jami 36 ta taʼsir hujjati – 2 ta ogohlantirish, 6 ta taqdimnoma, 25 ta xulosa va 3 ta sud hujjati ustidan protest keltirish toʻgʻrisida iltimosnoma kiritilgan.

Murojaatlarni oʻrganish natijasida aniqlangan bolalarga nisbatan sodir etilgan zoʻravonlik holatlari yuzasidan 19 ta jinoyat ishi hamda 26 ta maʼmuriy ish qoʻzgʻatilgan. Qoʻlaversa, bolalarga nisbatan zoʻravonlik holatlari yuzasidan 20 ta jinoyat ishini qoʻzgʻatishni rad etish haqida qaror bekor qilinib, qoʻshimcha tergovga qadar tekshiruv olib borish uchun yuborildi.

Shuningdek, internet tarmogʻida oʻtkazilgan monitoring natijasida aniqlangan bola huquqlarining buzilishiga oid holatlar mutasaddi davlat organlari bilan hamkorlikda oʻrganilib, bolalarga nisbatan sodir etilgan zoʻravonlik yuzasidan 23 ta jinoyat va 28 ta maʼmuriy ish qoʻzgʻatilishi taʼminlandi.

Maʼruzada keltirilganidek, oʻtgan davrda bolaning moddiy taʼminoti yuzasidan jami 403 mln. 745 ming soʻmlik alimant qarzdorligini undirishga koʻmaklashildi. 52 nafar yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolaga davlat boji va boshqa toʻlovlarsiz ID-kartalar rasmiylashtirilishiga amaliy yordam koʻrsatildi. Bundan tashqari, 20 nafar imkoniyati cheklangan bola tibbiy koʻrikdan oʻtkazilib, ularga reabilitatsiya, psixologik-pedagogik korreksiya xizmatlarini tashkil etishda koʻmaklashildi. Xorijda ota-onasi qaramogʻidan mahrum boʻlgan 45 nafar bola esa Oʻzbekiston Respublikasiga qaytarildi.

Muhokama davomida Bola huquqlari boʻyicha vakil va uning kotibiyati xodimlari yil davomida 45 ta fuqarolik, jinoyat va maʼmuriy ish yuzasidan sudlarda ishtirok etganiga alohida eʼtibor qaratilib, bola manfaatlari nuqtayi nazaridan sudlarda bunday faol pozitsiyada qatnashish ularning huquqlarini ishonchli va samarali himoya qilinishiga bevosita hissa qoʻshishi urgʻulandi.

Yigʻilishda qoʻmita aʼzolari tomonidan berilgan savollarga batafsil javob olinib, Bola huquqlari boʻyicha vakilning 2025-yildagi faoliyati toʻgʻrisidagi maʼruzasi maʼqullandi.

“Xalq soʻzi”.

